

“OLTOYLAR” ASARINING QIYOSIY TAHLILI.

Muxtaram Mutalibova

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Anvar Bo'ronovning “Oltoylar” asari bo'yicha oltoylar va o'zbek xalqining to'y, milliy o'yinlar, maishiy hayot va diniy marosimlari o'rtasidagi farqli hamda o'xshash jihatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Oltoylar, to'y, din, shomoniylilik, tangrichilik, kok boru", kurash, "kuresh", tosh ko'tarish, "kodurge tash", doston, maqol.*

Har bir shaxsning ichki olamida, botiniy hislarida milliy o'zlikni anglash xususiyati mujassamdir. Inson borki, o'zligini anglashga, borliqni bu dunyoning sir-asrorlarini o'rganishga harakat qiladi. Insonning o'zligini yoxud milliy o'zlikni anglash hodisasi ham aniq bilim va tasavvurlar zahirida tarkib topib, shakllanib boradi.

Hozirgi o'zbek tilimizning bobo tili qadimki turkiy til hisoblanadi. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, Oltoy xalqi ham qadimgi turkiy qabilalarning ajralmas bir bo'lagidir. Hozirda Oltoy xalqining yashash hududi Rossiya Federatsiyasi - G'arbiy Sibirga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham ayrim turkiy xalqlar bilan oltoylarning yashash hayotlari, turmush tarsi, dini, milliy marosimlari orasida biroz tafovut kuzatilishi mumkin. Aslini olib qaraganda ko'p turkiy qabilalar hozirgi kunda qo'shni bo'lib emas, turli hududlarda tarqoq holda yashashmoqda. Bunga sabablarni esa turlicha qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, qadimda turkiylar ko'chmanchi bo'lishgani yoki bosqichlik urushlari natijasida turli hududlarga ko'chib ketib qolishgani.

Anvar Bo'ronovning “Oltoylar” asarini o'qiyotganimda bir jumla e'tiborimni tortdi va o'zgacha ta'sir qildi. “Oltoy o'lkasi doimo dunyo olimlarini ohanrabodek o'ziga jalb qilib kelgan. Ayniqsa, 1929-yilda akademik S.I. Rudenko tomonidan topilgan Pazariq yodgorligi va unda olib borilgan tadqiqotlar dunyo olimlarining Oltoy o'lkasiga bo'lgan munosabatini butunlay o'zgartirib yubordi. U yerdan topilgan topilmalarning eng qadimgisi bo'lmish Pazariq yodgorligi miloddan avvalgi VI-III asrlarga oid bo'lib Skiflar madaniyatiga xos ekanligi aniqlangan. Pazariq sirlarining ochilishi Oltoy madaniyati ko'pgina xalqlar madaniyatiga beshik vazifasini o'taganligini isbotladi. Bu yerda topilgan va Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanayotgan eng qadimgi Gilam (V asr) esa so'zimizning dalillaridan biridir. Pazariq sirlari ochilguncha faqat turkiy, tungus-manjur, mo'g'ul, Tibet va xitoy xalqlari Oltoyni o'zlarining ilk vatani – millat beshigi deb atab kelgan bo'lsalar, bugun roman-german, fin-ugor, slavyan, yapon va koreys xalqlarining barchasi bu yerga millioy tarixni izlab kelmoqdalar. Pazariq yodgorligi o'rganilishi tufayli turkiy, yapon-koreys, tungus-manjur, mo'g'ul tillarini o'z ichiga oluvchi oltoy tillar oilasi aynan Oltoyda shakllanganligi to'liq isbotini topdi”. [1.8-9]

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, hozirda oltoylar kam sonli xalq bo'lishiga qaramay barcha xalqlarning boshlang'ich nuqtasi, ilk vatani bo'lgan.

Oltoy xalqining o'zbeklar bilan deyarli bir xil ataluvchi milliy o'yin va marosimlari bor. Har ikkala tilda ham “to'y”, “qalin”, “kelin”, “kuyov”, “quda” kabi so'zlar bir xil bo'lib

talaffuzidagina ozroq farqlanadi. Ba'zi so'zlar o'zbek adabiy tilida topilmasada, shevalarida, albatta, topiladi. Masalan, oltoylarda erkak qudaga "quda", ayol qudaga "qudag'ay" deb murojaat qilinadi, bu o'zbek adabi tilida bo'lmasa-da, Surxandaryo va Qashqadaryo shevalarida qudalarda huddi shunday murojaat qilinadi. Oltoylarda to'y to'rt bosqichda o'tkaziladi: a) Sovchilik; b) to'yga tayyorgarlik; c) to'y; d) to'ydan keying marosimlar. E'tibor qaratsak o'zbek xalqida ham huddi shunday tartibda to'ylar bo'lib o'tadi.

Oltoylarda sovchilik "qudalash" deb ataladi. Odatda ularda farzandlarni beshikdaligidayoq yoki 10-12 yoshlik paytlarida unashtirib qo'yishadi. O'zbek xalqida hozirgi kunda bunday holat kuzatilmaydi, lekin ma'lum bir dostonlardagina biz buni uchratishimiz mumkin, masalan "Alpomish" dostonidagi Hakimbek va Oybarchin. Sovchilikdan keyin oltoy xalqida kuyov bir muddat yashab turgan, bunga sabab kelin tomon kuyovni xislatlarini o'rganish edi, kuyov ham o'z navbatida ularga yaxshi xislatlarini ko'rsatishga harakat qiladi va bundan tashqari kuyov tomon tez-tez mehmonga kelib turgan. Sovchilikni so'ngida esa kuyov tomon kelinnikiga "aroq" (sutdan tayyorlangan aroq) olib kelishgan, kelinning ota-onasi bu aroqdan ichsa bu rozilik belgisi edi. Oltoylarda qiz tomon kuyov tomondan "qalin" olishgan, bu kuyovning mavqei, ijtimoiy holatidan kelib chiqib belgilangan. O'zbek xalqida qalin puli olish holati ayrim hududlardagina uchraydi.

To'ydan avval esa kelinning seplarini "qayirchoq" deb ataluvchi sandiqlarda saqlab kuyovnikiga olib kelingan va ularni to'y kuni kuyovnikiga olib kelib yoyilgan, yig'ilgan odamlarga namoyish qilingan. O'zbek xalqida bu marosim "Fotiha to'yi" deb nomlanib, odatda to'ydan 2-3 kun avval kuyovnikiga olib borib, seplar qo'yib kelinadi. Kuyovning qarindoshlari oltoylarda "qaynota", "qaynena", "qaynog'a", "qayni" deb atalgan. Bu esa deyarli o'zbeklar bilan bir xil faqat "qaynena" o'rniga "qaynona" va qaynonaning qaynasi "momaqayna" hamda kuyovning opa-singillari "qayniopa" va "qaynisingil" deb ataladi.

Oltoylarda kelin bitta farzandlik bo'lgandan keyingina oilaning haqiqiy a'zosi hisoblanadi. Kelin farzandlik bo'lgandan keyin qaynota va qaynonasi uning qizlik uyiga olib borgan. Taomilga ko'ra u yerga qo'y so'yib borishgan, qo'y go'shti kelinning haqi hisoblangan, shuningdek kelinning onasiga sut haqi o'rnida bitta sigir berilgan. Sigirning birinchi buzog'ini chaqaloqqa atalib uni tog'alari yaxshilab boqishgan va to'yda "sog'um" sifatida keltirgan. O'zbek xalqida kelinning onasiga sigir berilmasa-da, uning aka-ukalari tomonidan chaqaloq katta bo'lgan uning to'yiga "so'qim" sifatida bir novvos olib kelish taomili mavjud.

Oltoy xalqining to'ylarida tangrichilik dinining an'analari yaqqol ko'rinib turadi. Misol uchun, ular Tangri osmondan hammani kuzatib turadi deb, kelinni boshqa xonadonga olib ketilayotganini u ko'rmay qolishi uchun "kyojyogyo" deb nomlanuvchi pardani soyabon qilib olib ketishgan. Yana bir misol yangi kelin kuyovnikida o'choqqa yog' quyib, o'choq egasi O't - Enani oziqlantirgan.

Oltoylar islom dinini qabul qilmagan sanoqli turkiy qabilalardan biridir. Oltoy xalqi ma'lum bir dinga e'tiqod qilmasdan, har qanday dinga va unga oid rivoyatlarga ishonib, ko'pxudolik diniga sig'inib qolishgan. Ularni islom diniga o'tmaganliklarini esa ma'lum bir sabablari bor. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda oriy qabillarini bostirib kelishi natijasida oltoylar Shimoliy Xitoy, Mongologiya va Sibir tomonga ketishga majbur bo'lishadi va islom diniga yashayotgan hududlarini sababli ham kira olmay qolishadi.

Oltoy xalqida ham o'zbeklardagi kabi ko'pkari, kurash, arqon tortish, tosh ko'tarish kabi milliy o'yinlar bor. Ko'pkari oltoy tilida "Kok boru", kurash - "kuresh", tosh ko'tarish - "kodurge tash" deb nomlanadi. Oltoy xalqining xalq og'zaki ijodiga keladigan bo'lsak, ularda ham o'zbek xalqidagi kabi maqol, matal, afarizmlar mavjud. Ular farzand tarbiyasida eng ko'pi maqollardan, topishmoq va matallardan foydalanishadi. Ular o'z tarixini yozmaganlar, balki og'zaki ijodi orqali saqlab kelganlar. Oltoylar maqol va matallarni bir xil qo'llashadi, bunga isbot qilib ulardagi "maqollar gul bo'lsa, matallar mevadir" degan maqolni qo'llash mumkin. O'zbek xalqida maqollar ko'pincha keltirilayotgan gapga va biror bir hodisa, voqealarga misol sifatida keltiriladi bu esa qanchalik gapga chechanlikni bildiradi hamda fikrni ta'sirli, jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

Hayratlanarli jihatlardan biri oltoylarning "Alp-Manash" dostoni o'zbek xalqidagi "Alpomish" dostoniga juda ham o'xshashligidir. Har ikki dostonida ham qahramonlar nomus uchun kurashishadi. "Alp-Manash" dostonida Alp-Manash ozodlik va yurt nomusi uchun kurashsa, "Alpomish" dostonida Hakimbek ya'ni Alpomish qabila nomi hamda o'z yorining nomusi uchun qalmoqlar bilan kurashadi. Farqli jihatlari esa "Alp-Manash" dostonida shomoniylar dini va uning g'oyalari sezilib tursa, "Alpomish" dostonida islomiy qadriyatlar yetakchilik qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va oltoy xalqlari ham etnik, ham madaniy jihatdan mushtarakdir. Oltoy xalqi barcha turkiy xalqlarning "oltin qozig'i" hisoblanadi. O'zbek xalqi etnogenezi, urf-odatlar va madaniyatida ham mazkur xalq bilan uyg'unlikni kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Oltoylar" Anvar Bo'ronov. Toshkent "Muharrir nashriyoti" 2017.
2. "Turkiy xalqlar og'zaki ijodi" Abdurashida Abdurahmonov. Samarqand - 2006.